

Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik boshqarmasining
2024-yil 6-maydagi 167-ICh-buyrug‘iga
1 - ilova

**Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish
va
taqdim etish bo‘yicha
NIZOM
1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida (keyingi o‘rinlarda – bosh boshqarma va uning tizimi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda – Hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun ma’suliyat bosh boshqarma va uning tizimining Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi xodimlari zimmasida (keyingi o‘rinlarda – Korrupsiyaga qarshi kurashish) bo‘ladi.

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari hisobotni taqdim qilish uchun ma’suliyat Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat tizimi xodimi (keyingi o‘rinlarda – Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xodimi) zimmasida bo‘ladi.

2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyiligi

3. Bosh boshqarma va uning tizimida quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, tashkilotning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini bo‘yicha hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi.

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan,

shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar, tuziladi.

5. Yilning IV-choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o'rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

6. Har yillik hisobot bosh boshqarma va uning tizimi rahbarlariga (hay'atiga) topshiriladi.

Bosh boshqarma apparatidagi Komplaens nazorat bosh mutaxassisi har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay har choraklik Tashkilotning umumiy hisobotini O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o'rnlarda – Agentlik) ko'rib chiqishi uchun kiritib boradi.

7. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining yillik hisobotidagi umumiy axborot Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Mazkur axborot Komplayens nazorat bo'limi tomonidan tayyorlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo'l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2-sanasidan kechiktirmay, komplaens nazorat bosh mutaxassisiga ushbu oyning 10-sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to'g'risida xabarnoma yuboradi;

b) Bosh boshqarmaning apparati bo'linmalarining hisoboti Komplaens nazorat bosh mutaxassisi tomonidan tuziladi va rahbar yoki uning o'rnbosarlari tomonidan tasdiqlanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotning biron-bir bo'limi bo'yicha tadbirlar o'tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko'rsatish lozim.

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak;

g) Komplaens nazorat bosh mutaxassisi ushbu Nizomga 2-ilovada ko'rsatilgan shaklda bosh boshqarma va uning tizimi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda qo'shimcha ravishda unga ushbu

Nizomga 1-ilovadagi shakl bo'yicha bosh boshqarma va uning tizimi tizimi bo'yicha tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnoma va takliflar bo'lishi kerak. Yillik hisobot o'z ichiga o'tgan yilning xuddi shunday ko'rsatkichlariga ega bo'lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

10. Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligini hisobotni tuzishda Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari tegishli bo'linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so'rash va olish huquqiga ega.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmasi qisqa ma'lumotnoma biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiyligini hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21-sanasigacha rahbariyatga taqdim etadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

12. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartish va qo'shichalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga Komplaens nazorat bosh mutaxassisi ma'sul bo'ladi.

Sirdaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha

nizomiga
1-ilova

Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

Tashkilot nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Komplayens nazorat tuzilmasi):	F.I.SH., lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlar guruhini ng nomlari	Tadbirlarni ng nomlari	Bajarish muddati	Ma’sul ijrochilar	Ijro to‘g‘risi da belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganli kni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari

T/r	Tadbir	Natijalar
II. siyosatlar va proseduralar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Tashkilotda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish

	xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.
--	--	---

II. Shaxsiy namuna

3.	Tashkilot rahbari va uning o‘rinbosarlarining ichki tadbirdargi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda tashkilot tizimi rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo‘lish, tarkibiy bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to‘g‘risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e’tirof etilgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Tashkilot rahbari va uning o‘rinbosarlarining nomidan).	
5.	Tashkilot rahbari va uning o‘rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	

III. Xavf-xatarlarni baholash		
6.	Tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan\yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
7.	Hisobot davri uchun Tashkilotda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Tashkilotning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi.
10.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.
IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar		
11.	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestagini ilova qilish zarur.	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestagini ilova qilish zarur.
12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.

13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni.	Tashkilotga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va tashkilotdagi lavozimga nomzodlar tekshiruvi sonini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo‘lganda ushbu bo‘limda ko‘rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko‘rsatish.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

16.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng ko‘proq moylilik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o‘qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo‘linmalarni ko‘rsatish.
17.	Tashkilotga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglardan (umumiyl, tanishuv) o‘tgan yangi xodimlarni umumiyl yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbatli treninglar mavzusi kesimida ko‘rsatish.
18.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtirokchilarining maqsadli guruhini, ularni soni (imkon bo‘lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlari, viktorinalar, so‘rovnomalar va b. ko‘rsatiladi) va uning yakunlarini ko‘rsatish.
19.	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma’sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me’yorlari mavzusida axborot- tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to‘g‘risidagi, shu jumladan, ularning to‘g‘ri talqin qilinishi va ularga to‘g‘ri amal qilish to‘g‘risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.

20.	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo‘yiladigan suratlar va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati va bo‘linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko‘rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘gshimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar. Ta’sir choralari

22.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma’lumotlarni ham kiritgan holda ko‘rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlар (shu jumladan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlар soni.	Har bir band bo‘yicha holatlар sonini ko‘rsatish.
24.	Qabul qilingan ta’sir choralari.	Qanday korrektsiyalash choralari, shu

		jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar ustidan bajarilishi tekshiruvlar o‘tkazilganligi	Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas’ullar tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko‘rsatish Tekshiruv ob’ektlari (boshqarma, bo‘lim); Tekshiruv mavzusi (masadan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26.	Bo‘linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo‘llanilgan ta’sir choralar?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko‘rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjalari)?

Hulosalar: *Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi choralarни amalgа oshirishning asosiy natijalarini ko‘rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish zarur.*

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va korreksiyalovchi tadbirlar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko‘rsatish zarur.

Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik bosh boshqarmasi tizimida korrupsiyaga
qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi
hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha
nizomiga
2-ilova

**Bosh boshqarma va uning tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 20__ yil __chi chorak uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. Sirdaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida
umumiyl axborot**

Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi va hisobot davrida apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari soni viloyatlar, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida ko‘rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati (yuqori, o'rta, past) Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida ko'rsatiladi;

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida yuqori bo'lган qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko'rsatish lozim (mavjud bo'lган taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida (mavjud bo'lган taqdirda), apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi;

manfaatlar to'qnashuvini apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklatsiyalanadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va qabul qilingan choralar bo'yicha, shu jumladan, umumiy soni va toifalar kesimida (masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo'yicha bevosita bo'ysunish natijasida va shu kabilarda) tahliliy ma'lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni bosh boshqarma va uning tizimi shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni xo'jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo'yicha, shu jumladan apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma'lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko'rsatish;

apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida ko'rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tashkilot tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar sonini ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishning natijalarini apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida: o'qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta'lim shakli (bevosita/onlayn) ko'rsatiladi;

apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tizim bo'yicha o'qitish darajasi past bo'lgan korrupsiyaga qarshi ko'nikmalarga oid axborot ko'rsatiladi (rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari va sonini Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish) ko'rsatiladi;

Bo'limda shuningdek, tashkilot tizimida o'tkazilgan keng ko'lamli alohida tadbirlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida ko'rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma'lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat

apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida hisobot davrida tashkilot tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar keltiriladi, shu jumladan,

tekshiruvlar o‘tkazilgan tashkilotlar soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘linmalar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sababları qischacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiy axborot ko‘rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII-bo‘limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralar

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi to‘g‘risida apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Qabul qilingan ta’sir choralar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarni Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

o‘tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralar turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; tashkilot tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar

Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlari kesimida korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasি

Keyingi hisobot davrida tashkilot tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko'rsatkichlarni apparat, Bosh boshqarma va tasarrufiy tashkilotlar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko'rsatiladi.